ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UDK:796.5(575.1) **DOI: https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2058**

MILLIY TURIZM VA O‘ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJI YUKSALISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI

Sh.J.Xashimov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonning xalqaro imidji yuksalishida milliy turizmning tutgan o‘rni va ahamiyati masalalari tahlil qilingan. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi, axborot kommunikatsiya tizimining yanada takomillashuvi va uning turizm sohasi rivojlanishiga ta’siri masalalari ko‘rib o‘tilgan. O‘zbekistonning xalqaro imidji yuksalishiga xalqaro va milliy turizm tashkilotlari integratsiyasining zarurligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro imidj, milliy turizm, integratsiya, madaniyatlararo muloqot, axborot kommunikatsiya tizimi, turizm sohasi, turistik tashkilotlar, integratsiya jarayonlari.

Национальный туризм и социально-философские вопросы повышения международного имиджа Узбекистана

Аннотация. В статье анализируется роль и значение национального туризма в повышении международного имиджа Узбекистана. Рассмотрены вопросы интеграции Узбекистана в мировое сообщество, укрепления межкультурного диалога, дальнейшего совершенствования системы информационных коммуникаций и ее влияние на развитие сферы туризма. Показана необходимость интеграции международных и национальных туристических организаций в повышении международного имиджа Узбекистана.

Ключевые слова: международный имидж, национальный туризм, интеграция, межкультурная коммуникация, информационно-коммуникационная система, индустрия туризма, туристические организации, интеграционные процессы.

National tourism and socio-philosophical issues of increasing the international image of Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the role and importance of national tourism in improving the international image of Uzbekistan. Issues of integration of Uzbekistan into the world community, strengthening of intercultural communication, further improvement of the information and communication system and its impact on the development of the tourism sector were considered. The need for the integration of international and national tourism organizations for the rize of the international image of Uzbekistan was shown.

Key words: international image, national tourism, integration, intercultural communication, information communication system, tourism sector, tourism organizations, integration processes.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida mamlakatning xalqaro imidjini yuksaltirish, ushbu jarayonni milliy turizm sohasiga ham tatbiq etish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Imidj so‘zi lotin tilidan olingan so‘z bo‘lib, “ko‘rinish”, “qiyofa”, “timsol” degan ma’nolarni anglatadi. Imidj biron bir shaxs, ob’yekt, predmetning tashqi ko‘rinishi, holatini aks ettiradi. Har sohaning o‘z imidji mavjud bo‘lganidek, O‘zbekistonda milliy turizm rivojlanishining ham o‘z imidji mavjuddir.

“Bugungi kunda ushbu sohada olib borilayotgan davlat siyosati - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirish, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta’minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan. Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – yaqin yillarda yurtimizga keladigan turistlar sonini 10 millionga yetkazishdan iborat”[1:173-174].

Bugungi kunda xalqaro maydonda O‘zbekistonning turizm sohasiga katta e’tibor qaratayotgan, tashqi va ichki turizmni rivojlantirish masalasiga davlat siyosati darajasida munosabat shakllanayotgan davlat sifatidagi imidji shakllantirilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasidagi qator masalalar qayta ko‘rib chiqildi. Sayyohlarga viza berish keskin liberallashtirildi. Aeroportlarda navbatlar va tekshirishlarga barham berildi, yashil yo‘laklar tashkil etildi. Mehmonlar elektron ro‘yxatdan o‘tkaziladigan bo‘ldi, ular erkin harakatlanishi uchun hamma sharoitlar yaratildi. Valyuta ayirboshlashga cheklovlar bekor qilindi. Oxirgi yillarda O‘zbekistonga kelayotgan xorijiy turistlar soni ko‘paydi. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, sayyohlar oqimini ko‘paytirish, ularga qulay va xavfsiz sharoitlar yaratish maqsadida ko‘pgina shaharlarda ichki ishlar tuzilmalarida xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmalari tashkil etildi.

2022 yil 19-sentyabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizning ichki va tashqi turizm salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida Tashqi ishlar vazirligiga “Samarqand – Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi”, targ‘ibot kompaniyasini o‘tkazish, Samarqandga sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha “yo‘l xarita”sini tasdiqlash va elchixonalar oldiga xorijiy mamlakatlarda targ‘ibot kompaniyasi, xorijiy ommaviy axborot vositalari, mashhur turistik blogerlar uchun press-turlar tashkil etish vazifasi qo‘yildiki, bularning hammasi O‘zbekistonning turizm sohasida xalqaro imidji yuksalishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoniga 1-ilovada 35-maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish”[2]dan iborat deb belgilandi. Shu bilan birgalikda turizm va madaniy meros ob’yektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob’yektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha davlat dasturini qabul qilish ko‘rsatildi. Samarqandni “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari xajmini kamida 10 baravarga oshirish rejalashtirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham ushbu masalaga to‘xtalib o‘tilib, “Samarqand shahri dunyo taniydigan megapolisga, xalqaro turizm va biznes markaziga aylanmoqda”[3], deb ta’kidlandi.

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilovada xalqaro maydonda O‘zbekistonning imidjini oshirish vositasi sifatida ommaviy axborot vositalari samaradorligini oshirish masalasiga katta e’tibor qaratilgan. Taraqqiyot strategiyasidagi 98-maqsad: Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish, deb nomlangan. Ushbu maqsadda, O‘zbekiston imidjini jahon sahnasida ilgari surishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, mamlakatimizda islohotlarning borishi, jamiyatni demokratik yangilash jarayonlari haqida xolis axborot tarqatishni samarali davom ettirish[4] vazifasi belgilangan.

Yaponiyaning “The Japan Times” gazetasida chop etilgan “Milliy siyosat va savdo munosabatlari barqaror rivojlanmoqda” deb nomlangan maqolada O‘zbekistonda turizm rivojlanishi va unda ommaviy axborot vositalarining tutgan o‘rni masalasi yoritilgan.

O‘zbekiston ulkan turizm salohiyati va g‘oyat boy madaniy-tarixiy merosga ega, - deyiladi ushbu maqolada, - Bu zaminda purviqor tog‘lar bilan o‘ralgan vodiylar va jazirama sahrolar, qadimiy me’moriy obidalari bilan mashhur tarixiy majmualar va zamonaviy megapolislar ajib bir tarzda uyg‘unlashib ketgan. O‘zbekistonda 11 ta milliy tabiiy bog‘lar va davlat qo‘riqxonalari, 12 ta maxsus qo‘riqxona, 106 ta muzey, 37 ta teatr, 187 ta madaniyat va istirohat bog‘i mavjud. ...2018 yilda o‘zbek milliy taomlari “National Geographic” jurnalining “Gastronomik turizm” nominatsiyasida birinchi o‘rinni egalladi, O‘zbekiston ko‘plab xorijiy nashrlar, jumladan, “The New York Times”, “The Guardian”, “Lovely Planet” tomonidan sayohat uchun eng jozibador va qiziqarli yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda[5:300].

Euronews xalqaro axborot telekanali va Yevropaning boshqa ommaviy axborot vositalarida ham O‘zbekistonning turizmni rivojlantirish sohasidagi imkoniyatlari yoritib borilmoqda. Euronews xalqaro axborot telekanali o‘zining oylik tomoshabinlar qamrovi qariyb 15,2 million kishini tashkil etuvchi “Focus” sahifasida Samarqand turistik markazi zamonaviy kongress-markazi, “Abadiy shahar” tarixiy-etnografik xiyoboni, gashtak (baliq tutish uchun sun’iy ko‘l), musiqali fontan o‘rnatilgan markaziy saylgoh, Eco Village alohida kottejlar majmuasi, xalqaro tasniflangan brendlar ostidagi 8 ta mehmonxonani birlashtirgan ulkan ko‘p tarmoqli majmua, Silk Road Samarkand majmuasi

O‘zbekistonga sayyohlar oqimi kelishini kuchaytirishi to‘g‘risida ma’lumot berib, O‘zbekistonning xalqaro imidjining yuksalishida turizmning muhim o‘rin tutishiga o‘z e’tiborini qaratgan.

O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish jarayonida mamlakatning turizm sohasidagi imidjini sifat jihatidan yuksaltirish, unga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xorijiy va milliy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning yangi qiyofasi, uning obrazi, turizmni rivojlantirish sohasidagi imkoniyatlari, imidjini shakllantirishga qaratilgan xilma-xil maqola, sharh, suhbat va boshqa matbuot ma’lumotlari e’lon qilinmoqda. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekistonda milliy turizmning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, milliy-psixologik imidjining yuksalishiga xizmat qiladi. Imidjni yuksaltirishda ijobiy stereotiplar muhim o‘rin egallaydi. Stereotip biron bir narsa, hodisa yoki mamlakat, ya’ni O‘zbekiston obrazi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror, o‘zgarmaydigan, soddalashtirilgan, sxematik tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun mamlakatimizga kelayotgan turistlarning O‘zbekiston xaqida bildirgan ijobiy fikrlari, ijtimoiy tarmoqlarga yuklagan ma’lumotlari yurtimizga keladigan turistlar sonining yanada ko‘payishiga olib keladi. Shuning uchun ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari targ‘ibotini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2022 yil 1-3 noyabr kunlari O‘zbekistonda Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi o‘tkazilgan bo‘lsa, 5 noyabrda BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh kotibi Zurab Pololikashvili O‘zbekistonga kelib, Samarqandga tashrif buyurdi. Rossiya Turoperatorlar uyushmasi (ATOR) ijrochi direktori Maya Lomidzening fikriga ko‘ra O‘zbekiston MDH davlatlari orasida rossiyalik sayyohlar uchun eng mashhur yo‘nalishga aylandi. U yerda turlarga bo‘lgan talab 20 foizga o‘sdi. Samarqandga 2022 yilda 1,2 million xorijlik sayyoh keldi[6].

O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirish, uning turizm sohasidagi imkoniyatlarini targ‘ib qilish jarayonida axborot agentliklari muhim rol o‘ynaydi. Axborot agentliklari auditoriya qamrovi va tarqatilayotgan kontentning salmog‘i, ko‘tarilayotgan mavzularning jiddiyligi bilan boshqa milliy OAV platformalaridan farq qiladi. Shuning uchun O‘zbekistonning milliy turizmini targ‘ib-tashviq qilishda axborot agentliklari, ommaviy axborot vositalari, internet saytlaridan foydalanish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birgalikda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishda, mamlakatimizga chet ellardan kelayotgan sayyohlar oqimini kengaytirishda O‘zbekistonning chet ellardagi elchixonalariga ham katta vazifalar yuklatilmoqda.

O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar oqimini kengaytirish bo‘yicha elchixonalarimiz ham faol va tizimli ish olib borishi lozim, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Shuni alohida ta’kidlash joizki, xorijiy turistlarni mamlakatimizga jalb etish yuzasidan elchilarimizning Turizmni rivojlantirish bo‘yicha davlat qo‘mitasi va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda tizimli ravishda qattiq ishlashi talab qilinadi[7:287-288].

Jahondagi yetakchi axborot agentliklari bilan hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari tashviqotida ulardan unumli foydalanish mamlakatimizning turizm sohasidagi imidji yuksalishiga olib keladi. O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyati, turizm sohasidagi imkoniyatlaridan so‘zlovchi sifatli media kontentlarni tayyorlash, ularni mavjud barcha kommunikatsiya kanallari orqali jahon auditoriyasiga muntazam tarqatish yaxshi samara beradi. Ana shu maqsadda O‘zbekiston imidjini jahon maydonida ilgari surishni nazarda tutuvchi turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini tayyorlash va amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari uchun mamlakatimizning tarixi, zamonaviy taraqqiyoti, sayyohlik salohiyati, madaniyati va san’atiga oid yuqori sifatli foto, video va bosma materiallarni muntazam tayyorlash va yetkazib berish masalasiga ham bugungi kunda katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonning tarixi va zamonaviy taraqqiyoti, madaniyati va san’ati, tarixiy shaharlari, an’ana va urf-odatlari targ‘ib qilingan kitoblar, ma’lumotnomalar va qo‘llanmalarni xorijda nashr etish masalasiga e’tiborni kuchaytirish zarur bo‘lib, ushbu asarlarning xorijiy mamlakatlarda taqdimotlarini o‘tkazish, ularni chet el mamlakatlari parlament, hukumat va ekspert doiralari o‘rtasida tarqatish mamlakatimizning turizm sohasidagi imidjini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlarda O‘zbekiston imidjining o‘lchov mezoni sifatida turizmning tutgan o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakat turizm salohiyatini jadal rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida turizmni rivojlantirish sohasida qabul qilingan choralar katta natijalar berishni boshlagani ta’kidlandi. 2022 yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan

xorijiy turistlar soni 2021 yilga nisbatan 3 baravarga oshganligi (5,2 million, soha eksporti – 1,6 milliard dollar) ko‘rsatib o‘tildi. Ichki turizm dasturlari doirasida 11,5 million, shundan 1,5 million ehtiyojmand aholi, yoshlar va keksalar uchun sayohatlar tashkil etilganligi ta’kidlandi. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani qo‘shimcha 2 million sayyohni jalb qilish imkoniyatini berganligi, Samarqand 2023 yilgi Butunjahon turizm poytaxti maqomini olganligi [8] masalasiga e’tibor qaratildi.

Britaniyalik professor Sh.Akinerning fikriga ko‘ra, “turizm milliy imidjni rivojlantirish mumkin bo‘lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Chunki u xorijliklarni mahalliy aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga kiritadi. Natijada ana shu sayyohlar ongida ular tashrif buyurgan jamiyatlar haqida o‘z shaxsiy taassurotlarining shakllanishiga sabab bo‘ladi”. Britaniyalik olim S.Anholt fikriga ko‘ra, mamlakat imidjini mustahkamlash jarayonida ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda – boshqaruv, eksport, turizm, madaniyat va meros, investitsiya va imigratsiya, odamlar ham muhim rol o‘ynaydi[9].

Bugungi kunda O‘zbekistonning xalqaro imidjini shakllantirishda turizm sohasida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan tashqari turli xalqaro formatda o‘tkaziladigan forumlar, anjumanlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, madaniy ko‘rgazmalar, sport musobaqalari, etnografik, diniy, ekologik mavzularda o‘tkaziladigan turli tadbirlar muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonning turizmni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari haqida chet el ommaviy axborot vositalarida va mediamakonida muntazam maqolalar chop etish va videokontent uzatish, shuningdek, turizmni rivojlantirish sohasida erishilayotgan yutuqlarni keng targ‘ib qilish uchun brifinglar, davra suhbatlari, konferensiya va seminarlar o‘tkazish kutilgan natijalarni beradi. Xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imidjini ilgari suradigan xorijiy PR-agentliklari, xalqaro axborot maydonida nufuzli va ta’sirga ega bo‘lgan xorijiy ommaviy axborot vositalarida O‘zbekistonning turizm sohasidagi imkoniyatlari va yutuqlarini keng targ‘ib-tashviq etish mamlakatimizga keladigan turistlar sonining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy davlatlarda O‘zbekistonning madaniyati va san’atini targ‘ib etuvchi turli festivallar, konferensiya va tadbirlarni o‘tkazish ham o‘zining ijobiy natijasini beradi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlashda O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining xalqaro miqyosdagi aloqalari muhim o‘rin tutib, mamlakatimizning turizm sohasidagi imkoniyatlarini targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning ijobiy imidjini faol ilgari surish mexanizmlari va vositalarining milliy turizm bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish, xalqaro maydonda PR-sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston o‘zining ijobiy imidjini shakllantirish uchun yetarli darajada kuch va salohiyatga ega bo‘lib, turizmni rivojlantirish ushbu sohadagi ijobiy imidjni shakllantirishga tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi.

Turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish, turistik klasterlarni yaratish, sohaga strategik sheriklarni jalb qilish, sayyohlik infratuzilmasi va turizm sanoatini jadal rivojlantirish, hududlarning sayyohlik salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni jahon bozorlariga olib chiqish borasidagi faoliyatimizni jadal rivojlantiramiz[10:172], - deydi Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishda turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashtirilmoqda. Shu bilan birgalikda turizmning o‘ziga jalb etuvchi vositasi sifatida axborot bozori ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish, axborot texnologiyalari salohiyatidan samarali foydalanish, milliy turizmni rivojlantirishda reklamadan unumli ravishda foydalanish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Turizm xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha xalqaro global axborot tizimlariga ulanish va lokal servislarni yaratish, internet tarmog‘ida turistik imkoniyatlari haqidagi axborot resurslarini mamlakatimizda kengaytirish zarurdir. O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masala bo‘lib, turizm industriyasini rivojlantirish turistik resurslardan unumli foydalanish va xizmat ko‘rsatadigan infratuzilmani yuqori saviyaga olib chiqishni nazarda tutadi. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro imidjini yuksaltirishga xizmat qiladi. Turizm tizimi o‘ziga xos xususiyat, maqsad, vazifalar va strukturasiga ega bo‘lib, turizm sistemasiga xos bo‘lgan xususiyatlar bu uning ochiqligi, yaxlitligi, izchilligi va ketma-ketligidir. Turizm tizimi o‘z-o‘zidan rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lib, bu rivojlanish tizimning o‘z-o‘zini saqlash va takomillashishini ta’minlaydi. Turizm tizimining maqsadi mustahkam, ommaviy va raqobatbardosh turizmni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Turizm jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohalariga ta’sir ko‘rsatib, turizm natijasida mamlakatning ichki salohiyati namoyon etiladi, tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar obod qilinadi, tabiiy landshaft, ekoturizm, agroturizm, etnoturizm, diniy turizm marshrutlari

ishlab chiqiladi. Turizm aholini ish bilan ta’minlash, milliy madaniyat, hunarmandchilikning rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanilib, turizm xizmatlarini tashkil qilish bo‘yicha xalqaro global axborot tizimlariga ulanish, lokal servislarni yaratish, internet tarmog‘ida mamlakatning turistik imkoniyatlari xaqidagi axborot resurslarni kengaytirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida O‘zbekistonning turizm salohiyatini rivojlantirish yuzasidan o‘tkazilgan vidioselektor yig‘ilishida mamlakatda hozirgi turizm mavsumi qisqaligi, uni uzaytirish bo‘yicha salohiyat juda katta ekanligi ta’kidlandi. Toshkent, Jizzax viloyatlarida qishki mavsumda – toqqa chiqish, chang‘i uchish maydonlarini, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahrida yozgi mavsumda – cho‘milish maskanlarini tashkil etib, turistik mavsumni ikki oyga uzaytirish taklif etildi. Tegishli vazirliklar va mutasaddilarga festival va madaniyat tadbirlarini ko‘paytirish, qishki, ekologik turizmni rivojlantirish, qo‘riqxona, tabiat bog‘lari va tabiat yodgorliklari imkoniyatidan foydalanish bo‘yicha topshiriqlar berildi. “O‘zbekiston tashrif qog‘ozi”ni ishlab chiqib, turizm brendini yangilash, xorijiy telekanallarda “O‘zbekiston tashrif qog‘ozi”ni efirga uzatish, AQSh, Xitoy, Arab davlatlari, Yaponiya, Koreya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Malayziya, Rossiya, Qozog‘iston kabi mamlakatlarning yirik shaharlari gavjum ko‘chalaridagi ekranlarda “O‘zbekiston turizm brendi” haqidagi ma’lumotlarni joylashtirish, milliardlik obunachilari bor internet platformalarida O‘zbekiston haqidagi reklama roliklarini ko‘paytirish topshirildi[11].

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm rivojlangan xorijiy davlatlarning erishilgan yutuqlari ijodiy tarzda o‘rganilib, O‘zbekistonga chet ellik investorlarning mablag‘lari kiritilmoqda, yangi turizm infratuzilmasini shakllantirishda xorijiy davlatlarning tajribalariga tayanilmoqda. O‘zbekistonda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish aholini ish bilan ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, milliy hunarmandchilik, kasanachilikni rivojlantirish, milliy taomlar, milliy madaniyat, milliy urf-odat, an’ana, udumlar, marosim va bayramlar kabi milliy qadriyatlarni tiklash va yuksaltirish asosida amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda milliy turizm tizimining takomillashib borishi iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayot sohalariga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirishda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan sub’yektlarning innovatsion va kreativ yondashuvi talab etilmoqda. O‘zbekistonda zamonaviy turizm industriyasini shakllantirish uchun ko‘plab imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, sohani rivojlantirishga kompleks yondashilmoqda, respublikada ko‘plab zamonaviy sayyohlik infratuzilma ob’yektlari shakllantirilmoqda. Milliy turizmni rivojlantirishda, turizm infratuzilmasini shakllantirishda tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonda milliy turizmni tizimli va qonuniyatli jarayon sifatida o‘rganishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021-yil.
2. https://lex.uz/docs/5841063.
1. 3.https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-o’zbekiston-xalqiga-murojaatnomasi.
3. https://lex.uz/docs/5841063.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2020 yil.
5. https://uza.uz/posts/436423.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent, O‘zbekiston, 2018 yil.
7. https://kun.uz/news/2023/03/29/o’zbekistonda-tashrif-buyurgan-xorijiy-turistlar-soni-3-baravarga-oshgan.
8. https://beruniyalimov.uz/archives/986.
9. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021-yil.
10. https://kun.uz/news/2023/03/29/o’zbekiston-madaniyati-va-turistik-salohiyatini-targ’ib-qilish-uchun-100-mlrd-so’m-ajratildi.